

**TURK TILIDAGI “KARA” LEKSEMASINING  
LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI**

*Sarvara Irisaliyevna Tashaliyeva*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,*

*Turkshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi,*

*O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar*

*Universiteti, Xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turk tilidagi “kara” leksemasining semantik xususiyatlari, uning tarixiy shakllanishi hamda turli kontekstlarda ifodalovchi ma’nolari tahlil qilinadi. “Kara” leksemasi turk tilida faqat rang bildiruvchi birlik sifatida emas, balki ko‘chma, emotsional-ekspressiv va madaniy-semantik qatlamlarga ega bo‘lgan ko‘p ma’noli til birligi sifatida ham faol qo‘llanadi.

**Kalit so‘zlar:** kara, leksema, semantika, turk tili, ko‘p ma’nolilik, frazeologizm, ramziy ma’no.

Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Har bir tilning leksik qatlamida milliy tafakkur va madaniyatni ifodalovchi o‘ziga xos birliklar mavjud. Turk tilidagi “kara” leksemasi ana shunday semantik jihatdan boy va ko‘p qirrali birliklardan biridir. Ushbu leksema qadimgi turkiy davrdan boshlab faol qo‘llanib kelinayotgan birlik bo‘lib, hozirgi turk tilida ham turli ma’nolarda ishlatiladi.

“Kara” so‘zi dastlab rang ma’nosini ifodalagan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning semantik doirasi kengayib, salbiy holat, motam, qayg‘u, kuch, ulug‘lik, oddiylik kabi ma’nolarni ham anglatadigan bo‘lgan. Shu sababli mazkur leksemani semantik jihatdan o‘rganish turk tilining leksik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Hozirgi turk tilida “kara” leksemasining asosiy ma’nosi “qora rang”ni bildiradi. Masalan: kara saç – qora soch, kara bulut – qora bulut

Bunda leksema predmet yoki hodisaning rang belgisini ifodalovchi sifat vazifasida qo‘llanadi. Ammo “kara”ning semantik maydoni faqat rang tushunchasi bilan chegaralanmaydi.

Turk tilining izohli lug‘atlarida “kara” so‘zining quyidagi ma’nolari ham qayd etiladi: Qora rang; Zulmat, qorong‘ilik;

Musibat, qayg‘u;

Yovuzlik yoki salbiylik;

Katta, ulkan;

Oddiy xalq yoki omma ma’nosi.

Demak, leksema ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, turli kontekstlarda

turlicha semantik vazifa bajaradi.

“Kara” leksemasining muhim jihatlaridan biri uning ko‘chma ma’nolarda keng qo‘llanishidir. Ayniqsa, turk xalq og‘zaki ijodi va badiiy adabiyotida ushbu birlik kuchli emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega.

Qayg‘u va motam ma’nosi  
*kara haber – mudhish xabar*  
*kara gün – og‘ir kun*  
*kara baht – qora taqdir*

Bu birikmalarda “kara” salbiy ruhiy holatni ifodalovchi semantik komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Ba’zi hollarda leksema salbiy hodisalarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

kara liste – qora ro‘yxat

kara propaganda – qora targ‘ibot kabi birikmalarda yovuzlik va salbiylik ma’nosini anglatadi.

Qadimgi turkiy manbalarda “kara” ba’zan “katta”, “qudratli” ma’nolarida ham ishlatilgan. Masalan: Kara Han, Karakurum. Bu yerda leksema salbiy emas, aksincha ulug‘lik va kuch semantikasi bilan bog‘liq.

Turk tilidagi ko‘plab frazeologik birliklar tarkibida “kara” komponenti uchraydi. Bunday birliklarda leksema o‘zining asl rang ma’nosidan uzoqlashib, obrazli ma’no hosil qiladi.

Misollar

kara kara düşünmek – chuqur tashvishga botmoq  
 kara gün dostu – og‘ir kunda yordam beruvchi do‘st  
 kara sevda – kuchli, iztirobli sevgi

Ayniqsa, kara sevda birikmasi turk madaniyatida chuqur hissiy kechinmalarni ifodalovchi poetik obraz sifatida keng tarqalgan.

Turkiy xalqlar tafakkurida ranglar ramziy ma’no kasb etadi. “Kara” ham qadimdan ma’lum ijtimoiy va madaniy tushunchalarni ifodalagan. Ayrim tarixiy manbalarda “kara xalq” iborasi oddiy xalq ma’nosida qo‘llangan. Bu yerda “kara” kamsitish emas, balki “xalq ommasi” semasini bildiradi.

Shuningdek, turk mifologiyasi va folklorida qora rang ba’zan sirlilik, noma’lumlik va kuch ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan “kara” leksemasi nafaqat lingvistik, balki kulturologik ahamiyatga ham ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turk tilidagi “kara” leksemasi murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lgan ko‘p ma’noli birlikdir. U dastlab rang ma’nosini anglatganda, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli ko‘chma va ramziy ma’nolarni ham o‘zlashtirgan. Leksema qayg‘u, motam, salbiylik, kuch, ulug‘lik va oddiy xalq kabi turli semantik qatlamlarni ifodalaydi. Ayniqsa, frazeologik birliklarda uning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Demak, “kara” leksemasini o‘rganish turk tilining semantik tizimi, xalq tafakkuri va madaniy qarashlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кононов А.Н.”О семантики слов кара и ак в тюркской географической терминологии” , -Известия отделение общественных наук АН Таджикской ССР, №5 Сталинабад, 1954, стр 83-85.
2. Türkçe Sözlük, 1, Türk dil kurumu yayınları, Ankara, 1983, 645-s
3. Тошалиева С.”Турк ва ўзюек тилларидаги “қора” таркибли сўз-лексемаларнинг баъзи хусусиятларига доир”-“Шарқшунослар анжумани”, 7-сон, илмий тўплам, ТДШИ, Т., 2012, 95-99-бетлар.
4. Турк тилидаги “кара” сўз-лексемасининг концептив табиатига доир. “Оразовские чтение-2” Материалы Международной научно-практической конференции, Казахстанский инженерно-педагогический университет дружбы народов, Шымкент., 2015 114-117-бетлар.